<i>Temurbek Olimovich Mamayunusov</i>	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ.....	1415
<i>Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович</i>	
O‘ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA‘SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI.....	1423
<i>Sobirov Yo‘ldoshboy Ro‘zimboevich</i>	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ.....	1431
<i>Эрматов Зиядулла Досматович</i>	
OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1437
<i>Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich</i>	
INTERNATIONALIZATION AS A TOOL FOR INSTITUTIONAL DEVELOPMENT IN EMERGING HIGHER EDUCATION SYSTEMS.....	1442
<i>Yunusova Shirin Adxamovna</i>	
NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI.....	1448
<i>Salomova Sarvinoz Salimovna</i>	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	1453
<i>Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich</i>	
INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1458
<i>Madaminov In'omjon Ozodovich</i>	
MARKETING STRATEGIYASI YORDAMIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1465
<i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	
INNOVATIVE FINANCIAL MECHANISMS FOR FINANCING RENEWABLE ENERGY AND GREEN ECONOMY PROJECTS: AN ECONOMIC PERSPECTIVE	1469
<i>F. Nishonov</i>	
DDOS HUJUMLARINI ANIQLASH USULLARI	1474
<i>Mardiyev Ulugbek Rasulovich</i>	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMINING STATISTIK TAHLILI	1479
<i>Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich</i>	
XORIJIY MAMLAKATLARDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH TAJRIBASI VA UNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	1483
<i>Misirov Iskandar Abduvaliyevich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK MENEJMENT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI	1489
<i>Jamolov Alovuddin Jaloliddin o'g'li</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH ZARURLIGI VA UNING BANK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI	1494
<i>Raxmatov Xasan Utkirovich</i>	
EKOLOGIK MONITORING TIZIMLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA EVOLYUTSIYASI	1504
<i>Homidov Hamdam Hasanovich</i>	
MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ICHKI AUDITNING RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: MEHNAT, MODDIY VA MOLIYAVIY RESURLAR KESIMIDA ICHKI AUDIT AHAMIYATI	1509
<i>Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li</i>	



MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ICHKI AUDITNING RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: MEHNAT, MODDIY VA MOLIYAVIY RESURSLAR KESIMIDA ICHKI AUDIT AHAMIYATI

Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

e-mail: raxmatullayevmirjalol0787@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ichki auditning nazariy va amaliy jihatlari, xususan, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqotda ichki auditning mustaqilligi, jarayon-markazli va riskga asoslangan yondashuvi ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari — mavsumiylik, tez buziluvchan xomashyo, sovuqlik zanjiri, laboratoriya sifat ko'rsatkichlari hamda normativ yo'qotishlar bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilingan. Ichki auditning mehnat unumdorligi, materiallar harakati va pul oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish orqali tannarx hisobining ishonchligini ta'minlash, chiqish koeffitsiyenti va OEE ko'rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek, boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada ichki audit ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim operatsion boshqaruv vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, meva-sabzavotni qayta ishlash, mehnat resurslari auditi, moddiy resurslar auditi, moliyaviy resurslar auditi, riskga asoslangan yondashuv, jarayon-markazli audit, tannarx, chiqish koeffitsiyenti, OEE, auditorlik dalillari.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of internal audit in fruit and vegetable processing enterprises, particularly its role in improving the efficiency of labor, material, and financial resource utilization. The study analyzes the independence of internal audit and its process-oriented and risk-based approaches in relation to the specific characteristics of production processes, including seasonality, perishable raw materials, cold chain requirements, laboratory quality indicators, and regulatory losses. The importance of internal audit in ensuring cost reliability by strengthening control over labor productivity, material flows, and cash movements, improving output coefficients and Overall Equipment Effectiveness (OEE), and supporting evidence-based management decision-making is substantiated. The article interprets internal audit as an essential operational management tool that demonstrates practical significance in enhancing production efficiency.

Keywords: internal audit, fruit and vegetable processing, labor audit, material audit, financial audit, risk-based approach, process-oriented audit, cost, output coefficient, OEE, audit evidence.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты внутреннего аудита на предприятиях по переработке фруктов и овощей, в частности его роль в повышении эффективности использования трудовых, материальных и финансовых ресурсов. В исследовании проанализированы независимость внутреннего аудита, а также процессно-ориентированный и риск-ориентированный подходы с учетом специфики производственных процессов — сезонности, скоропортящегося сырья, холодной цепи, лабораторных показателей качества и нормативных потерь. Обоснована значимость внутреннего аудита в обеспечении достоверности себестоимости посредством усиления контроля за производительностью труда, движением материалов и денежными потоками, повышения коэффициента выхода продукции и показателей общей эффективности оборудования (ОЕЕ), а также принятия управленческих решений на основе объективных данных. В статье внутренний аудит рассматривается как эффективный инструмент оперативного управления, способствующий повышению производственной эффективности.

Ключевые слова: внутренний аудит, переработка фруктов и овощей, аудит трудовых ресурсов, аудит материальных ресурсов, аудит финансовых ресурсов, риск-ориентированный подход, процессно-ориентированный аудит, себестоимость, коэффициент выхода продукции, ОЕЕ, аудиторские доказательства.

KIRISH

Mehnat resurslari auditini amalga oshirish jarayonida auditor tomonidan ish vaqti tabeli, smena grafiklari, vazifalar taqsimoti hujjatlari, ko'p funksiyali malaka ro'yxatlari, mehnatni muhofaza qilishga oid hujjatlar hamda o'qitish va sertifikatlash dalillari tizimli ravishda o'rganiladi. Shuningdek, ustama va akkord to'lovlarining asoslanganligi auditorlik sinovlari orqali tekshiriladi, ishlab chiqarishdagi to'xtashlar vaqti kodlari, texnik xizmat ko'rsatish yozuvlari hamda ishlab chiqarishga tayyorgarlik protokollari tahlil qilinadi. Mehnat unumdorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar, jumladan, ish-soat/kg yoki ish-soat/litr, o'rtacha ishlab chiqarish seriyasi, o'tish vaqti hamda uskunalaridan foydalanishning umumiy samaradorligi (OEE) muntazam ravishda monitoring qilinib, me'yorlardan chetlanishlar aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

G.T. Sharipovaning ta'kidlashicha, "ichki nazoratning markaziy organlari joriy operatsiyalarni boshqaruvchi tuzilmalardan mustaqil faoliyat yuritib, korxonada boshqaruv ierarxiyasining eng yuqori darajasida joylashadi. Ularning faoliyati korxonaning barcha funksional yo'nalishlarini, shu jumladan risklarni boshqarish jarayonlarini ham qamrab oladi". Ushbu yondashuv ichki audit tizimining strategik ahamiyatini va uning korxonada boshqaruvidagi muhim o'rnini asoslab beradi.

Shu nuqtai nazardan, "buxgalteriya hisobi ishchilarning ishlab chiqarish me'yorlariga rioya etilishi, ish vaqtidan oqilona foydalanilishi va ish haqi jamg'armasidan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi" degan metodik tamoyil mehnat resurslari auditida muhim nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi. Mazkur tamoyil auditorlik dalillar bazasini shakllantirishda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, hujjatlashtirish intizomi ichki audit samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, dalolatnomalar, smenalik topshiriqlar, brigada qaydnomalari, ichki buyurtma varaqalari hamda "to'xtashlar reyestri" kabi hujjatlar auditorlik tekshiruvining ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, moddiy rag'batlantirish va bonus tizimlarining mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi analitik auditorlik dalillari asosida baholanadi. Bu esa ichki auditning mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish natijalarining ishonchligini ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilishdagi muhim rolini yanada kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida hisob va audit tizimini rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon izchil tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishda fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida "Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации" nomli dissertatsiya tadqiqotini alohida ta'kidlash lozim. Mazkur tadqiqotda iste'mol kooperatsiyasi tizimida meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish siklini audit qilishning tashkiliy va metodik jihatlari, audit bosqichlari, auditorlik dalillarini confirm qilish hamda audit natijalarini umumlashtirish mexanizmlari tizimli ravishda yoritilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning shakllanish jarayonlari audit nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinib, ichki auditning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida xarajatlar hisobi va hujjatlashtirishning metodik asoslari "Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции" nomli ilmiy maqolada keng o'rganilgan. Tadqiqot mualliflari xarajatlarning to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirilishi, ularning buxgalteriya hisobida haqqoniy aks ettirilishi mahsulot tannarxini ishonchli aniqlashning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, tadqiqotda birlamchi hisob hujjatlari tizimi, ularning axborot imkoniyatlari hamda amaliyotda uchraydigan metodik muammolar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Agrosanoat majmualarida yetishtirish va dastlabki qayta ishlash xarajatlari hisobga olish hamda tannarxni kalkulyatsiya qilish masalalari "Совершенствование учета и калькулирования себестоимости выращивания и первичной переработки плодов и винограда" nomli ilmiy ishda chuqur tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotda biologik aktivlar, xomashyo tayyorlash, qayta ishlash xarajatlari hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlashning zamonaviy yondashuvlari ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan metodik yondashuvlar qayta ishlash korxonalarida tannarxni boshqarish va audit qilish jarayonlarini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash sexlarida ishlab chiqarish hisobini tashkil etish masalalari "Производственный учет плодоовощной продукции в цехах промышленной переработки" nomli ilmiy maqolada yoritilgan. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish xarajatlari mas'uliyat markazlari kesimida hisobga olish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda ushbu ma'lumotlardan boshqaruv



qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan. Mualliflar ishlab chiqarish hisobining to'g'ri tashkil etilishi ichki audit samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar.

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish masalalari "Совершенство управления управленческого учета на предприятиях плодоовощной перерабатывающей отрасли" nomli ilmiy ishda chuqur tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotda boshqaruv hisobi elementlarini joriy etish, xarajat va natijalarni mas'uliyat markazlari kesimida tahlil qilish, ichki nazorat va audit tizimi bilan integratsiyalash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, boshqaruv hisobi va ichki audit tizimining uyg'unligi korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, tannarxni optimallashtirish hamda moliyaviy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ichki audit, ishlab chiqarish hisobi va boshqaruv nazoratini tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini shakllantirishga muhim hissa qo'shgan. Shu bilan birga, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ichki auditni riskga asoslangan va jarayon-markazli yondashuv asosida takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish masalalari ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ichki auditni ishlab chiqarish jarayonlari va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan integratsiyalashgan holda o'rganishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

Tizimli va funksional tahlil – ichki audit, ichki nazorat va boshqaruv qarorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda;

Jarayon-markazli yondashuv – mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar harakatini ishlab chiqarish bosqichlari kesimida baholashda;

Riskga asoslangan audit yondashuvi – tug'ma, nazorat va aniqlamaslik risklarini identifikatsiya qilish hamda ularni ustuvorlik darajasi bo'yicha baholashda;

Hujjatli va dalillarga tayangan tekshiruv usullari – ish vaqti tabeli, smena grafigi, qabul-topshirish dalolatnomalari, laboratoriya protokollari (BRIX, pH, quruq modda), ishlab chiqarish va ombor jurnallari, qayta ishlash dalolatnomalari hamda moliyaviy hisob registrlarini tahlil qilishda;

Analitik va taqqoslama tahlil – reja va amaldagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlarni, mehnat unumdorligi (ish-soat/kg), chiqish koeffitsiyenti, OEE, tannarx dispersiyasi hamda marja ko'rsatkichlarini baholashda;

Normativ (standard-cost) va kalkulyatsion yondashuv – normal va ortiqcha yo'qotishlarni ajratish, xarajatlarni ularning shakllanish omillari asosida taqsimlash hamda mahsulot tannarxining ishonchligini oshirishda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Audit natijalari boshqaruv qarorlariga bevosita "signal" bo'lib xizmat qiladi: qaysi uchastkalarda ko'p mahoratlikni kengaytirish, qaysi smenada to'xtashlar ko'p, qaysi texnologik bosqichda o'tish vaqti cho'zilayotganini aniq ko'rsatadi. Bu esa ishchilarni joy-joyiga oqilona taqsimlash, smena tarkibini qayta ko'rish, profilaktik xizmat intervalini qisqartirish, energiya va issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish orqali mehnat birligi tannarxini pasaytiradi. Ichki audit metodikasi aniq bo'lsa, tekshiruvlar ham samaraliroq bo'ladi: "Ichki auditni o'tkazish vaqtini qisqartirishning eng samarali yo'llaridan biri - aniq metodikani ishlab chiqishdir"¹. Shu yondashuv mehnat resurslari bo'yicha nazorat va baholashni izchil standartlashtiradi, tuzatish harakatlari rejasini (mas'ullar, muddatlar, kutilayotgan KPI) aniq belgilaydi hamda qayta tekshiruvlar siklini soddalashtiradi.

Mehnat resurslari auditi natijalarini moliyaviy intizom bilan bog'lash tarmoq uchun muhim ustunlik beradi. Ish haqi, ustamalar va ijtimoiy to'lovlarning hisobga olinishi to'g'ri tasniflanganida, tannarx ko'rsatkichining ishonchligi oshadi; bu esa marjani himoya qiladi va byudjet-fakt intizomini mustahkamlaydi. "Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiyasini takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytiradi va tannarx ko'rsatkichining ishonchligini oshiradi"² degan ilmiy xulosa mehnat sarflari uchun ham to'liq amal qiladi. Boshqaruv nuqtayi nazaridan mehnat xarajatlarini to'g'ri tasniflash va drayverlar (soat, kilogramm, mashina-soat) asosida taqsimlash jarayonli kalkulyatsiya izchilligini ta'minlaydi; xarajatlar klassifikatsiyasini tanlash ko'plab omillarga bog'liq ekanini esda tutish lozim - ishlab chiqarish texnologiyasi, seriya hajmi va

1 Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.

2 Тостоган П.Г. Совершенствование учета и калькулирования себестоимости выращивания и первичной переработки плодов и винограда в агропромышленных объединениях: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский финансовый институт, 1984. – 180 с.

uchastka xususiyatlari bu tanlovni belgilaydi. Yakunda mehnat auditi natijasida chiqish koeffitsiyenti va OEE oshadi, o'tish vaqtlarining dispersiyasi torayadi, ish vaqti yo'qotishlari va brak ulushi qisqaradi; bu esa zaxira aylanishini tezlashtirib, pul oqimlarini silliqilaydi va korxonaning barqaror foydaliligini oshiradi.

Moddiy resurslar auditi xomashyo, yordamchi materiallar, qadoqlash, yoqilg'i-energiya, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulot zaxiralari ustidan hujjatlar va fizik oqimlar kesimida izchil tekshiruvdir. Auditning markaziy vazifasi - kiritimdan ishlab chiqarishgacha, u yerdan esa ombor va realizatsiyagacha bo'lgan bosqichlarda har bir harakatni birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlash, mulk huquqi, to'liqlik, baholash, tasniflash, vaqtida tan olish hamda izlanishni (lot-partiya) dalillar bilan bog'lashdir. "Har bir xo'jalik operatsiyasi birlamchi buxgalteriya hujjati bilan tasdiqlanishi shart; bunday hujjat yuridik kuchga ega bo'lib, mas'ul ijrochi tomonidan tuziladi"³. Moddiy oqimlar bo'yicha audit dasturi qabul-topshirish dalolatnomalari, laboratoriya (BRIX, kislotalilik, quruq modda) bayonnomalari, harorat-namlik jurnallari, texnologik kartalar, ishlab chiqarish jurnallari, ombor hisobi va partiya pasportlarini ko'ndalang tekshirishga tayanadi. "Zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish tekshiruvi tashqi auditning eng muhim qismi bo'lib, u daromadlar hisobotiga ham, balansdagi likvidlik ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir qiladi"⁴.

Audit hujjatlashtirish intizomidan boshlanadi: qabul qilingan xomashyo va yordamchi materiallar haqiqiy miqdor va sifat bo'yicha kiritim qilinadi, ishlab chiqarish jurnali esa operatsiya sodir bo'lgan kunda to'ldiriladi. "Moddiy boyliklar va chiqindilar harakati bo'yicha operatsiyalarni hujjatlashtirish va ularni o'z vaqtida hisobga olish tekshiriladi; qabul qilish, kiritim, chiqim, qadoqlash, chiqindilarni hisobdan chiqarish hamda normativ sarf bo'yicha nazorat o'tkaziladi"⁵. Shuningdek, birlamchi qayta ishlash dalolatnomasi buxgalteriya yozuvlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi: "Qayta ishlash akti yordamchi materiallar, taralar va chiqindilarni hisobdan chiqarish hamda tayyor mahsulotni kiritim qilish uchun asos bo'ladi"⁶.

Moddiy resurslar auditi normativ yo'qotishlar va brakka doir hujjatlar ketma-ketligini alohida tekshiradi. "Saqlash davrida tabiiy kamayish me'yorlari fermentatsiya tugagach hisoblanadi; qayta ishlangan sabzavot va mevalar bo'yicha me'yorlar dastlabki massaga nisbatan tasdiqlanadi"⁷. "Yo'qotishlarni xarajatlarga o'tkazishda inventarizatsiya dalolatnomasi, me'yor doirasidagi hisob-kitob va rahbarning buyrug'i mavjud bo'lishi shart"⁸. Brak bo'yicha aktlar, qayta ishlashdagi qo'shimcha xarajatlar va qaytarib olinadigan chiqindilar qiymati aynan shu dalillarga tayangan holda e'tirof etiladi. Shu bilan birga, "xarajatlarni qanday guruhlash va tasniflashni tanlash ko'plab omillarga bog'liq"⁹, ya'ni texnologik bosqichlar, seriya hajmi, mavsumiylik va nomenklatura audit testlarini moslashtirishni talab qiladi.

Audit natijalarini hisob va kalkulyatsiya bilan bog'lash korxonaga uchun ikki tomonlama foyda beradi: nazorat kuchayadi va tannarx ishonchligi ortadi. "Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va kalkulyatsiyasini takomillashtirish, nazoratni kuchaytiradi va tannarx ko'rsatkichining ishonchligini oshiradi"¹⁰. Shu bois auditor materiallar harakatini hisob yozuvlarida ham izchil tekshiradi, qayta ishlash akti tuzilmaguncha xomashyo qiymatini xarajatlarga kiritmaslik, yordamchi materiallarni haqiqiy qiymatda aks ettirish, qayta ishlashdan qaytgan qiymatli chiqindilarni chegirish tartibini baholaydi. "Qayta ishlash xarajatlarning analitik hisobi mahsulot turlari va maqola nomenklaturasi bo'yicha yuritiladi; birlik tannarx oddiy usulda hisoblanadi"¹¹. Bundan tashqari, normativ (standard-cost) yondashuvi jarayonni operativ boshqarishga imkon beradi: "Normativ usul qo'llanganda fakt tannarx to'g'risidagi ma'lumotni istalgan paytda olish mumkin, bu esa og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va sabablarini o'rganishga xizmat qiladi"¹².

3 Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – С. 1–10. URL: <https://core.ac.uk/display/73978637>

4 Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.

5 Дворецкая Ю. А., Горло В. И. Производственный учет плодоовощной продукции в цехах промышленной переработки // Управленческий учет. – 2023. – №. 11. – С. 380-385.

6 Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – С. 1–10. URL: <https://core.ac.uk/display/73978637>

7 Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – С. 1–10. URL: <https://core.ac.uk/display/73978637>

8 Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.

9 Власова Н.С. Совершенствование управленческого учета на предприятиях плодоовощной перерабатывающей отрасли (на примере предприятий Краснодарского края) : автореф. дис. ... к.э.н. - Краснодар, 2008. - 32 с.

10 Тостоган П.Г. Совершенствование учета и калькулирования себестоимости выращивания и первичной переработки плодов и винограда в агропромышленных объединениях: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский финансовый институт, 1984. – 180 с.

11 Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – С. 1–10. <https://core.ac.uk/display/73978637>

12 Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.



Quyidagi 1-jadval moddiy resurslar auditi bo'yicha obyektlar, dalillar, testlar va kutiladigan boshqaruv natijalarini jamlaydi.

1-jadval. Moddiy resurslar auditi bo'yicha obyektlar, dalillar, testlar va boshqaruv natijalari¹³

Audit bosqichi	Asosiy hujjatlar (dalillar)	Asosiy testlar	Me'yor/yozuvi	Kutiladigan natija/KPI
Qabul va sifat nazorati	Qabul-topshirish dalolatnomasi, partiya pasporti, laboratoriya protokoli (BRIX, kislotalilik), ishlab chiqarish jurnali	Hujjat-fakt mosligi; sifat balli; izlanish (lot - zaxira)	Qayta ishlash akti tuzilmaguncha xomashyo xarajatlarga kiritilmaydi	Chiqish koeffitsiyenti, reklamatsiya kamayishi
Ombor va zaxiralar	Ombor qoldiq daftari, harorat-namlik jurnali, inventarizatsiya bayonnomalari	Inventarizatsiya; FIFO/partiya tekshiruvi; WIP baholash	Zaxira/WIP tekshiruvi tashqi auditning asosiy qismi	Zaxira aylanishi, likvidlik ko'rsatkichlari
Yo'qotishlar va brak	Fermentatsiya va saqlash bo'yicha me'yorlar, brak akti	Tabiiy kamayish hisob-kitobi; brakka doir yozuvlar; "kontrolli ishga tushirish"	Me'yor doirasida hisob-kitob va buyruq talab etiladi	Tannarx dispersiyasi torayishi
Kalkulyatsiya va tahlil	Analitik hisob registrlari, kalkulyatsiya varaqalari	Oddiy usulda birlik tannarx; og'ishlar tahlili; standard-cost	Analitik hisob mahsulot va maqola bo'yicha	Marja barqarorligi, ichki rezervlar aniqlanishi

Audit songgida moddiy resurslar auditi hujjatlashtirish intizomi, normativ-me'yoriy hisob va izlanish orqali xomashyo va materiallar oqimini shaffoflashtiradi. "Xomashyo va materiallar sarfi, tabiiy yo'qotish me'yorlari, chiqindilarni hisobga olish hamda tayyor mahsulotni o'z vaqtida kirim qilish ustidan nazorat - qayta ishlash jarayonining samaradorligi va rentabelligini ta'minlaydi"¹⁴. Shu izchillik tannarxni ishonchli hisoblash, yo'qotishlarni me'yordan oshirmaslik va sifatni barqarorlashtirish orqali korxonaning foydaliligini yaxshilaydi.

Moliyaviy resurslar auditi meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida xarid-to'lov zanjiri, byudjet-chiqim intizomi, debitor va kreditor majburiyatlari, narx formulalari, bonus-jarima hisoblari, avans va akkreditivlar, subsidiyalar va foiz kompensatsiyalaridan foydalanishning qonuniyligi hamda maqsadlilikini dalillar asosida tekshiradi. Maqsad - pul oqimlari va moliyaviy natijalar ustidan ishonchli nazorat o'rnatish, shartnomaviy bandlar va laborator ko'rsatkichlarga bog'langan narx tuzatmalarining o'z vaqtida va to'liq aks etishini ta'minlash, shuningdek, daromadni tan olishda huquqiy nuqtalarni (yetkazib berish shartlari, bojxona va sertifikatlash talablari) aniq hujjatlashtirishdir. Moliyaviy audit rejalashtirilayotganda mavsumiylik va fenologik "to'liqlar" bilan bog'liq likvidlik bosimlari, xomashyo uchun oldindan to'lov va hosil-oldi moliyalashuvining roli, eksportdagi valyuta xavflari ham inobatga olinadi. Shu yondashuv korxonada qiymat zanjiridagi har bir moliyaviy oqimni fizik oqimlar (partiya pasporti, qabul-topshirish dalolatnomasi, BRIX va kislotalilik bo'yicha laborator protokollar) bilan "birma-bir mos" qilishga imkon beradi. "Audit - dalillarga tayangan mustaqil baholash bo'lib, ishlab chiqarish sikli va hujjatlashtirishning ishonchlilikini tekshiradi"¹⁵.

Moliyaviy resurslar auditing markazida byudjet-fakt taqqoslari va pul oqimlari prognozi turadi. Auditor xarid narxini shakllantirish formulalarini (sifat balliga bog'langan bonus va chegirmalar), akkreditiv va kafolat xatlari bo'yicha to'lovlarning vaqtida va to'liq bajarilishini, avanslarning qoplash tartibini, eksport tushumining hisobga olinishi va qaytarish/reklamatsiya zaxiralari bilan bog'liqligini sinovdan o'tkazadi. Daromadni tan olishda yetkazib berish shartlari bo'yicha risk va foydaning o'tishi, bojxona rasmiylashtiruvi va fitosanitariya sertifikatlari - hammasi huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi; shu nuqtalarda keskin xatoliklar ko'pincha aylanish kapitali siklini cho'zadi va foiz xarajatlarini oshiradi. Shuning uchun auditor nafaqat hujjatlar butligini, balki jarayonlarning iqtisodiy mantiqini ham tekshiradi: narx differensial bilan premium segmentlarga kirishda qadoqlash va sovuqlik zanjiri xarajatlari daromadga mos "premium" berayaptimi, bonus-jarima mexanizmi real sifat ko'rsatkichlari bilan sinxronmi, zaxiralar (reklamatsiya, qaytarish, sifat penaltillari) ehtiyotkorlik tamoyiliga mosmi. "Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiyasini takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlari ustidan

13 Muallif ishlanmasi

14 Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – С. 1–10. <https://core.ac.uk/display/73978637>

15 Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.



nazoratni kuchaytiradi va tannarx ko'rsatkichining ishonchligini oshiradi"¹⁶- bu xulosa moliyaviy auditga ham to'liq tatbiq etiladi, chunki hisob metodikasi aniqligidan foyda va pul oqimlari prognozining sifatiga bevosita ta'sir kelib chiqadi.

Moliyaviy auditda rezervlar va zaxiralar siyosati alohida ko'rib chiqiladi: bonus-jarima bo'yicha kutilayotgan tuzatmalar, qaytarish ehtimoli, reklamatsiya xarajatlari, shartnomaviy jarimalar, foiz kompensatsiyasi va subsidiyalarning maqsadliligi, debitor qarzlari bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar, valyuta kursi bo'yicha ta'sir (agar valuta shartnomalari bo'lsa) aniq mezonlar bilan baholanadi. Shu bilan birga, zaxiralarni baholash usullari (o'rtacha tortilgan qiymat yoki "birinchi kirim - birinchi chiqim"), tugallanmagan ishlab chiqarishning aniqligi va tayyor mahsulotni tan olish mezonlari ham tekshiruvdan o'tadi - ayniqsa mavsumiy narx tebranishlari kuchli bo'lgan paytda. Auditor "narx-hajm-mix-tannarx" ko'prigini tahlil qilib, marjaga eng katta ta'sir ko'rsatayotgan halqani aniqlaydi: yuqori energiya sarfi, o'tish vaqtlarining cho'zilishi, qayta ishlov ulushining oshishi yoki sifatdan chetlanishlar hisobiga to'lanayotgan jarimalar. Bunda ma'lumotlarni to'liq ochiqlash ham muhim: tanlangan baholash usullari, normal-ortiqcha yo'qotishlar siyosati, reklamasiyalar va qaytarishlar tartibi, valyuta va foiz risklarini boshqarish yondashuvlari izohlar qismida muntazam ochib borilishi lozim. "Xarajatlarni qanday guruhlash va tasniflashni tanlash ko'plab omillarga bog'liq"¹⁷ - ushbu nazariy tamoyil moliyaviy auditda ham qo'llanadi: mas'uliyat markazlari, mahsulot yo'nalishlari, bozor segmentlari va shartnoma tiplari bo'yicha analitik kesimlar qanchalik to'g'ri qurilgan bo'lsa, marja manbalari shunchalik aniq ko'rinadi.

Piravordida, moliyaviy resurslar auditi menejmentga uchta darajada qarorlar beradi: operatsion (to'lov intizomi, zaxira siyosati, narx tuzatmalarining hujjatlashtirilishi), o'rta muddatli (aylanma kapital aylanishini tezlashtirish, byudjet-fakt intizomini kuchaytirish, zaxiralar baholash va daromadni tan olish siyosatini yangilash) va strategik (eksport geografiyasi va shartlari, investitsion modernizatsiya va raqamli izlanish tizimlariga sarmoya). Pul oqimlari silliqlashadi, qarz yuki boshqariladi, likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilanadi, foyda va marja barqarorlashadi. Shu ma'noda moliyaviy audit nafaqat "hisobotni tasdiqlash", balki korxonaga qiymatini oshiruvchi boshqaruv vositasiga aylanadi: dalillarga tayanib narx strategiyasini differensiallash, premialar va jarimalarni adolatli qo'llash, eksport shartlarini optimallashtirish va valyuta xavflarini cheklash imkonini beradi - demak, ishlab chiqarish samaradorligi va bozor natijalari o'rtasida uzviy ko'prik quradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ichki audit meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida risk va nazorat tizimining uchinchi himoya chizig'i sifatida boshqaruv sikliga uzviy integratsiyalashgan ishonchli axborot va dalillar oqimini shakllantiradi. U nafaqat moliyaviy natijalar ishonchligini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik intizomga rioya etilishi hamda mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ichki audit jarayonida auditor ishlab chiqarishning barcha asosiy bosqichlarini — xomashyoni qabul qilish va topshirish, dastlabki sovitish, sterilizatsiya va pasterizatsiya, aseptik to'ldirish, quritish va muzlatish jarayonlarini tizimli ravishda tahlil qilib, mavjud nomuvofiqliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha asoslangan xulosalar beradi.

Ichki auditning boshqaruv sikliga ta'siri, odatda, uch bosqich orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda risklarni identifikatsiya qilish va xaritalash jarayoni amalga oshirilib, tug'ma, nazorat va aniqlamaslik risklari aniqlanadi. Tug'ma risk ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos murakkabligi, mavsumiylik yoki inson omiliga bog'liq tabiiy noaniqliklar bilan izohlanadi. Nazorat riski mavjud ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligi yetarli bo'lmaganda yuzaga keladigan ehtimoliy nomuvofiqliklarni ifodalaydi. Aniqlamaslik riski esa auditorlik tekshiruvlari davomida yetarli auditorlik dalillari mavjud bo'lmaganda yoki noto'g'ri baholash natijasida muhim xatoliklarning aniqlanmay qolish ehtimoli bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqichda ichki audit mavjud nazorat mexanizmlarining dizayni va amalda ishlash samaradorligini baholaydi. Bu jarayonda ishlab chiqarishning turli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari, jumladan, sovuqlik zanjirining uzilishi, laboratoriya sifat ko'rsatkichlarining normativlardan chetlanishi, normal va ortiqcha yo'qotishlarning noto'g'ri hisobga olinishi, qadoqlash materiallari sifatining talab darajasiga mos kelmasligi, mahsulot saqlash muddati bilan bog'liq nomuvofiqliklar hamda shartnomaviy sifat ko'rsatkichlari va moliyaviy yozuvlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanadi va baholanadi.

Uchinchi bosqichda esa ichki audit natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga operativ ravishda integratsiya qilinadi. Bunda reja va amaldagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlar tahlili, nazorat nuqtalarida test sinovlarini o'tkazish, inventarizatsiya natijalarini baholash, mahsulot harakati zanjiri bo'yicha izlanish sinovlari, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish (SMED) tahlili, ishlab chiqarish to'xtash sabablarini aniqlash

16 Тостоган П.Г. Совершенствование учета и калькулирования себестоимости выращивания и первичной переработки плодов и винограда в агропромышленных объединениях: дис. ... к.э.н. – Москва: Московский финансовый институт, 1984. – 180 с.

17 Власова Н.С. Совершенствование управленческого учета на предприятиях плодоовощной перерабатывающей отрасли (на примере предприятий Краснодарского края) : автореф. дис. ... к.э.н. - Краснодар, 2008. - 32 с.



hamda energiya va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash orqali risk manbalari aniqlanadi.

Ichki audit natijalari mas'uliyat markazlari va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Xususan, mahsulot chiqish koeffitsiyenti, brak va qayta ishlash ulushi, umumiy jihoz samaradorligi (OEE), zaxiralar aylanish tezligi, reklamatsiyalar darajasi hamda debitor va kreditor qarzdorliklarning aylanish ko'rsatkichlari (DSO/DPO) kompleks baholanadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan, iqtisodiy jihatdan asosli va operativ shaklda qabul qilish imkonini yaratadi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ichki auditni riskga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish va uni boshqaruv tizimi bilan to'liq integratsiyalash zarur.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI), jumladan, chiqish koeffitsiyenti, OEE, tannarx va resurs sarfi ko'rsatkichlarini ichki audit tizimi orqali muntazam monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ichki audit jarayonida zamonaviy analitik vositalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali auditorlik dalillarining ishonchligini oshirish va audit samaradorligini kuchaytirish lozim.

To'rtinchidan, ichki auditning metodik asoslarini takomillashtirish, audit jarayonlarini standartlashtirish hamda auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishning aniq reglamentini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, ichki audit ishlab chiqarish jarayonlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali korxonada samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Shu bilan birga, metodik izchillikni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki audit tekshiruvi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish aniq metodik yondashuvni ishlab chiqishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Власова Н.С. Совершенствование управленческого учета на предприятиях плодоовощной перерабатывающей отрасли (на примере предприятий Краснодарского края): автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Краснодар, 2008. – 32 с.
2. Дворецкая Ю.А., Горло В.И. Производственный учет плодоовощной продукции в цехах промышленной переработки // Управленческий учет. – 2023. – № 11. – С. 380–385.
3. Тостоган П.Г. Совершенствование учета и калькулирования себестоимости выращивания и первичной переработки плодов и винограда в агропромышленных объединениях: дис. ... канд. экон. наук. – М.: Московский финансовый институт, 1984. – 180 с.
4. Трофимова А.Н., Рощина Е.В. Методика документального оформления и учета затрат по переработке плодоовощной продукции // Вестник Белорусского торгово-экономического университета потребительской кооперации. – 2013. – № 2. – С. 1–10.
5. Шарипова Г.Т. Организация и методика аудита производственного цикла по переработке плодоовощной продукции в потребительской кооперации: дис. ... канд. экон. наук. – М.: Московский университет потребительской кооперации, 2000. – 170 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100